

2-sho'ba**XALQARO AKADEMIK ALMASHINUV KONTEKSTIDA TALABALARNING
LINGVOMADANIY KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISH***Berdialiyev B.N¹**Annotatsiya:*

Mazkur tezis xalqaro akademik almashinuv dasturlari doirasida talabalarning lingvomadaniy kompetensiyasini rivojlantirish masalalariga qaratilgan. Xorijiy muhitda ta'lim olayotgan talabalar uchun til va madaniyat uyg'unligining ahamiyati, kommunikativ moslashuv jarayonlari hamda ularni rivojlantirishning samarali mexanizmlari o'rganilgan.

Kalit so'zlar: Akademik mobillik, lingvomadaniy kompetensiya, madaniyatlararo muloqot, xalqaro almashinuv, til kompetensiyasi, ta'lim integratsiyasi.

Bugungi globallashuv jarayonlari natijasida oliy ta'lim tizimi milliy chegaralardan chiqib, xalqaro ta'lim makonining ajralmas qismiga aylanmoqda. Xususan, "UNESCO" ma'lumotlariga ko'ra, so'nggi yillarda xalqaro miqyosda tahsil olayotgan talabalar soni olti milliondan oshgan. Bu ko'rsatkich akademik mobillikning nafaqat ta'lim sifati, balki madaniyatlararo muloqotni rivojlantirishdagi ahamiyatini ham tasdiqlaydi.

Xalqaro almashinuv dasturlari, jumladan, Erasmus+ dasturi doirasida har yili yuz minglab talabalar Yevropa va boshqa davlatlarda o'qish, stajirovka o'tash imkoniyatiga ega bo'lmoqda. Ushbu dastur ishtirokchilarining 90 foizdan ortig'i xorijiy til ko'nikmalari va madaniyatlararo muloqot kompetensiyalarining sezilarli darajada oshganini qayd etgan. Bu esa lingvomadaniy kompetensiyaning bevosita xalqaro tajriba orqali shakllanishini isbotlaydi. Lingvomadaniy kompetensiya bu faqat tilni grammatik jihatdan bilish emas, balki o'sha til egalari madaniyati, qadriyatlari, ijtimoiy xulq-atvor me'yorlari va kommunikativ uslublarni tushunish demakdir. Masalan, Germaniya yoki Yaponiya oliy ta'lim muhitida akademik etikaga, vaqtni boshqarishga va rasmiy muloqot shakliga yuqori e'tibor qaratiladi. Agar talaba bu madaniy xususiyatlarni oldindan bilmasa, u akademik muhitga moslashishda qiyinchiliklarga duch kelishi mumkin. Aksincha, lingvomadaniy tayyorgarlikka ega talaba dars jarayonida faol ishtirok etadi, ilmiy munozaralarda o'z fikrini erkin bayon qiladi va xalqaro jamoada samarali ishlay oladi. Shuningdek, "OECD" hisobotlarida qayd etilishicha, xalqaro tajribaga ega bitiruvchilarning mehnat bozoridagi raqobatbardoshligi yuqori bo'ladi. Buning asosiy omillaridan biri – ularning madaniyatlararo muloqotga tayyorligi va moslashuvchanligidir. Demak, akademik mobillik nafaqat ta'lim sifati, balki kelajakdagi kasbiy muvaffaqiyatni ham ta'minlaydi.

Oliy ta'lim muassasalarining xalqaro aloqalari kengayib borayotgan sharoitda xalqaro akademik harakatchanlik, qo'shma ta'lim dasturlari va ta'lim kreditlarini oliy ta'lim muassasalari o'rtasida o'zaro tan olish tizimlari talabalar uchun turli madaniyatlararo muloqot imkoniyatlarini taqdim etmoqda. Bu jarayonda tarjimonlarda lingvomadaniy kompetensiyalarni rivojlantirish eng muhim omillardan biri sifatida baholanmoqda. Lingvomadaniy kompetensiya — bu shaxsning chet tilida muloqot qilish jarayonida til birliklarini madaniy kontekstda to'g'ri qo'llash qobiliyatidir. Xalqaro akademik almashinuv jarayonida talabalar turli madaniyat vakillari bilan muloqotga kirishadi, bu esa ularning dunyoqarashi va kommunikativ salohiyatini kengaytiradi. Akademik almashinuv doirasida lingvomadaniy kompetensiyani rivojlantirish quyidagi yo'nalishlarda amalga oshiriladi: xorijiy tillarni chuqurlashtirib o'rganish; madaniyatlararo treninglar tashkil etish; xalqaro

¹ *Berdialiyev Bahodir Nazarovich, SamDChTI katta o'qituvchisi*

loyihalar va seminarlar; talabalarining moslashuv dasturlari; virtual va real akademik almashinuv platformalarini amalga oshirish va boshqalar.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, tizimli yondashuv asosida tashkil etilgan lingvomadaniy tayyorgarlik talabalarining xalqaro muhitga moslashuvini tezlashtiradi, ularning ta'lim samaradorligini oshiradi hamda professional rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Oliy ta'lim muassasalari tomonidan maxsus dasturlar va metodik yondashuvlar ishlab chiqilishi talabalarni xalqaro ta'lim makoniga samarali integratsiyalashuviga xizmat qiladi. Shu bois, lingvomadaniy kompetensiyani rivojlantirish xalqaro hamkorlik strategiyasining ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lishi lozim. Ayniqsa xorijiy tillar va tarjima yo'nalishlarida tahsil olayotgan talabalar uchun bu juda muhim hisoblanadi. Yevropa Ittifoqi mamlakatlarida European Master's in Translation (EMT) dasturi tarjima ta'limi uchun sifat belgisi sifatida tan olingan bo'lib, bu dasturga a'zo universitetlar o'rtasida talabalarining xalqaro almashinuvi, qo'shma kurslar va ekspertiza almashinuvi amalga oshiriladi. EMT mezonlari tarjima mutaxassisligida lingvistik, madaniy va strategik kompetensiyalarni integratsiyalashgan holda shakllantirishni nazarda tutadi. Shuningdek, Yevropada faoliyat yuritayotgan Socrates Network for Translator Training (SNTT) tizimi ham tarjimon tayyorlash bo'yicha universitetlararo hamkorlikni kengaytirib, talabalar va o'qituvchilarga akademik mobillik imkoniyatlarini yaratadi. Bu orqali talabalar nafaqat til bilimini, balki madaniyatlararo muloqot malakasini ham mustahkamlash imkoniga ega bo'ladilar.

Ushbu xalqaro tajribalar tahlili shuni ko'rsatadiki, lingvomadaniy kompetensiyaning samarali shakllanishi uchun nafaqat til bilimlari, balki madaniyatlararo muloqot ko'nikmalari, amaliy tarjima loyihalari va real kontekstdagi tajriba almashinuvi muhim omillardir. Tarjima ta'limi mazmunini boyitish, qo'shma dasturlarni ishlab chiqish va xalqaro akademik mobil dasturlarga jalb etish orqali tarjimon talabalarining lingvomadaniy kompetensiyasini yanada puxta shakllantirish mumkin.

Bugungi kunda oliy ta'lim muassasalari oldida turgan eng asosiy vazifalardan biri ta'lim eksportini rivojlantirish hisoblanadi. So'ngi yillarda o'nlab xalqaro va xususiy oliy ta'lim muassasalarining ochilishi, talabalarining xorijiy universitetlarda tahsil olish imkoniyatining kengayib borishi kabi omillar sabab oliy ta'lim muassasalari yetarlicha talaba qabul qilishlari uchun kurashishlari kerakligi ma'lum bo'lmoqda. Bu o'rinda albatta xorijlik talabalar sonini oshirish ham muhim ahamiyatga ega.

Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlariga ko'ra, 2025-yilning yanvar-noyabr oylarida respublikaga 37,2 ming nafar chet el fuqarosi o'qish maqsadida tashrif buyurgan. Eng ko'p xorijlik talabalar mos ravishda Hindiston, Turkmaniston, Tojikiston, Pokiston va XXR mamlakatlari fuqarolari hisoblanadi. Ta'lim eksportini rivojlantirish va xorijlik talabalar sonini oshirishning eng muhim omillariga to'xtalmoqchimiz. Birinchidan oliy ta'lim muassasasida ta'lim sifati va xalqaro reytinglarning ahamiyati katta. Xorijiy talabalar, avvalo, universitetning akademik nufuzi va reytingdagi o'rniga e'tibor qaratadi. Masalan, QS World University Rankings va Times Higher Education reytinglarida yuqori o'rin egallagan OTMlar xalqaro talabalar uchun jozibador hisoblanadi. Ingliz tilidagi ta'lim dasturlari sonini oshirish, xalqaro akkreditatsiyadan o'tgan yo'nalishlar hamda professor-o'qituvchilarning ilmiy nufuzi va xalqaro loyihalardagi ishtiroki asosiy a,aliy omillar deyishimiz mumkin. Shuningdek, ikki diplomli (double degree) va qo'shma ta'lim dasturlari xorijlik talabalarni jalb qilishda samarali vosita hisoblanadi. Masalan, Erasmus+ doirasidagi hamkorliklar Yevropa va boshqa mintaqalardan talabalarni jalb qilish imkonini beradi. Bundan tashqari ko'plab talabalar uchun moliyaviy omil hal qiluvchi ahamiyatga ega. Nisbatan arzon kontrakt to'lovi va grant dasturlari universitetning jozibadorligini oshiradi. Shu bilan birga raqamli marketing va brending muhim rol o'ynaydi. Kuchli ingliz tilidagi veb-sayt, faol ijtimoiy tarmoqlar va xalqaro ko'rgazmalarda ishtirok qilish talabalar oqimini oshiradi. Xorijlik talabalar uchun moslashuv jarayoni juda muhim hisoblanadi. Buning uchun birinchi navbatda qulay infratuzilma va talabalarni qo'llab-quvvatlash tizimi muhim ahamiyatga ega. Bundan tashqari talabalar nafaqat universitetni, balki mamlakatni ham tanlaydi. Xavfsizlik, yashash xarajatlari, madaniy muhit va ish imkoniyatlari muhim omillardir. Masalan, OECD

hisobotlarida ta'kidlanishicha, bitiruvdan keyin ishlash imkoniyati mavjud bo'lgan davlatlar xorijiy talabalar uchun ko'proq jozibador hisoblanadi. Xorijlik talabalar uchun qulay til muhiti va madaniyatlararo tolerantlik ham eng muhim omillardan biridir. Ingliz tilidagi akademik muhit, xalqaro talabalar klublari va ko'p millatli kampus xorijliklar sonining ortishiga xizmat qiladi. Tarjimon talabalarning lingvomadaniy kompetensiyasini rivojlantirish xalqaro akademik harakatchanlik, qo'shma ta'lim dasturlari va xalqaro standartlar bilan uyg'un strategiyalar orqali amalga oshirilishi ta'limning sifati va professional tayyorgarlik darajasini oshirishga xizmat qiladi.

Andijon davlat tibbiyot universiteti vakili B.Muydinxonov O'zbekistondagi tibbiyot oliy ta'lim muassasalarida xorijlik talabalarning moslashuvi to'g'risidagi to'xtalgan. O'zbekistonda xorijiy talabalarning moslashuv jarayonlari akademik, ijtimoiy-madaniy, psixologik hamda tashkiliy yo'nalishlarni qamrab oladi. Ushbu jarayonda asosiy muammolar sifatida mahalliy tilni bilmaslik, madaniy tafovutlar va yangi ta'lim talablari namoyon bo'ladi. Biroq moslashuv samaradorligi O'zbekiston oliy ta'lim muassasalarining o'ziga xos xususiyatlari mahalliy jamiyatga integratsiya darajasi hamda universitetlar tomonidan ko'rsatilayotgan qo'llab-quvvatlash choralari, jumladan, xorijiy oliygohlar filiallarining ochilishi va maxsus moslashuv strategiyalarining ishlab chiqilishi hisobiga ortib bormoqda.

Moslashuv jarayonining asosiy jihatlari quyidagilarga to'xtalmoqchimiz. Akademik moslashuv, ya'ni, yangi o'qitish metodlariga, oliy ta'limning yuqori o'quv yuklamasi va talablariga moslashish. Ijtimoiy-madaniy moslashuv, ya'ni, o'zbek yoki rus tili talaba uchun ona tili bo'lmasa, til to'sig'ini yengib o'tish, mahalliy urf-odatlar, an'analar va xulq-atvor me'yorlarini anglash, bu esa talabaning talabalar muhitiga muvaffaqiyatli integratsiyalashuviga yordam beradi. Va albatta psixologik moslashuvni ham aytishimiz lozim. Talaba birinchi navbatda stress, yolg'izlik va vatanni sog'inish hissini yengishi kerak bo'ladi hamda yangi muhitga nisbatan ijobiy munosabatni shakllantirishi lozim bo'ladi. Kun tartibi, oliygoh ichki qoidalar va maishiy masalalarni o'zlashtirish kabi tashkiliy moslashuv ham muhim.

Shuningdek, moslashuvga ijobiy yoki salbiy ta'sir etuvchi omillar mavjud bo'lib, ijobiy omillarga madaniy yaqinlik (ayniqsa MDH davlatlari uchun), rus tilida so'zlashuvchi muhitning mavjudligi, universitetlarda talabalarni qo'llab-quvvatlash dasturlari (kuratorlik tizimi, moslashuv tadbirlari). Salbiy omillar (qiyinchiliklar)ga til muammolari, madaniy tafovutlar, o'quv dasturlarining murakkabligi, yangi ijtimoiy sharoitga moslashish zarurati kiradi.

Moslashuv strategiyalari bo'lib, universitetlar tomonidan xorijiy talabalarni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan maxsus dastur va strategiyalarni ishlab chiqish, madaniyatlararo almashinuv va integratsiya uchun sharoit yaratish. Umuman olganda, moslashuv ko'p qirrali jarayon bo'lib, u talabaning faol ishtirokini hamda ta'lim muassasasining tizimli qo'llab-quvvatlashini talab etadi. O'zbekiston xorijiy talabalar uchun qulay sharoit yaratish borasida izchil sa'y-harakatlarni amalga oshirmoqda. Masalan, birinchi bosqichda xorijiy talaba universitet tomonidan tashkil etilgan "Orientation Week" dasturida ishtirok etadi, o'quv jarayoni va ichki tartib-qoidalar bilan tanishadi. Keyinchalik u mahalliy talabalar bilan birgalikda guruh loyihalarida qatnashib, til ko'nikmalarini mustahkamlaydi va madaniy muhitga singib boradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Claire K. Language and Culture. United Kingdom, Oxford University Press. 1998. 80 p.
2. Michael B. Teaching and Assessing International Communicative Competence. UK.: Multilingual Matters, 1997. 192 p.
3. Мўйдинхонов Б. Адаптация иностранных студентов в медицинских вузах Узбекистана. / „Modern education and development“ Vol. 38 No. 1 (2025) С. 56-59.
4. https://www.unesco.org/en/higher-education?utm_source=chatgpt . Com (Murojaat qilingan sana: 20.02.2026).

5. https://translation.ec.europa.eu/get-involved-european-language-activities-and-initiatives/european-masters-translation_en (Murojaat qilingan sana: 11.02.2026).
6. https://a.osmarks.net/content/wikipedia_en_all_maxi_2020-08/A/Socrates_Network_for_Translator_Training (Murojaat qilingan sana: 14.02.2026).
7. <https://news.mail.ru/society/69342533/> (Murojaat qilingan sana: 20.02.2026).
8. https://www.oecd.org/en/publications/rethinking-regional-attractiveness-in-the-new-global-environment_a9448db4-en/full-report/component-8.html?utm_source=chatgpt.com (Murojaat qilingan sana: 20.02.2026)